

PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONIDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Kuchkarova Fazilat Xonkeldiyevna

Samarqand Zarmed Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri, dotsent

Asrorova Madina Orzuyevna

Negmatova Dilora Abdug‘aforovna

Zarmed Universiteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini shakllantirish muhim omili sifatida ko‘riladi. Bu pedagogik faoliyatda o‘qituvchi, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sog‘lom muhit, madaniyatli tinglash, samimiy suhbatlarni yaratishga xizmat qiladi. Bu muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom psixologik muhit yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy va vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, suhbat, axloq, tarbiya, faoliyat, muhit, ta'lim jarayoni, muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, tinglash madaniyati, o‘zaro hurmat, didaktik muloqot.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование культуры общения в процессе педагогического образования как важный фактор. Эта педагогическая деятельность направлена на создание этикета, здоровой атмосферы между преподавателями и студентами, цивилизованного слушания и искренних бесед. Такая культура общения считается основой и инструментом создания здоровой психологической среды между преподавателями и студентами, повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: культура, беседа, этика, воспитание, деятельность, среда, образовательный процесс, культура общения, педагогическое общение, культура слушания, взаимоуважение, дидактическое общение.

FORMATION OF A CULTURE OF COMMUNICATION IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION

Abstract. This article examines the formation of a communication culture in the process of pedagogical education as an important factor. This pedagogical activity is

aimed at creating etiquette, a healthy atmosphere between teachers and students, civilized listening and sincere conversations. Such a communication culture is considered the basis and tool for creating a healthy psychological environment between teachers and students, improving the quality and effectiveness of education.

Key words: culture, conversation, ethics, education, activity, environment, educational process, culture of communication, pedagogical communication, culture of listening, mutual respect, didactic communication.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog'lom, madaniyatli muloqot ta'lim samaradorligini asosiy sifatida qaralmoqda. Muloqot shunchaki gapirish, suhbatlashish yoki axborot almashish emas, balki tarbiyaviy ijtimoiy va psixologik ta'sirga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Shuning uchun pedagogik ta'lim jarayonida muloqot madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi o‘zining nutq madaniyati, odob axloqiy, kiyinish madaniyati, tinglash qobiliyati va estetik jihatdan ham o‘quvchiga nafaqat bilim, balki axloqiy namuna bo‘lishi kerak. O‘qituvchi pedagogik jarayonda o‘quvchilar bilan hamkorlikda to‘g‘ri tashkillashtirilsa o‘zaro tushunishni yo‘lga qo‘ya olsagina ko‘zlangan maqsadiga erishadi.

Muloqot kishilarning birgalikdagi faoliyatining muhim shartlaridan biridir. Muloqot-bu kishilar o‘rtasidagi o‘zaro axborot almashish jarayonidir. Muloqot bu insonlarning tabiiy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi, chunki odamlar bir-biri bilan gaplashishmasdan, suhbat qilmasdan, axborot almashmasdan yashay olmaydilar. Muloqot tufayli kishilar bir-birini tushunadilar, mehnat jarayonida hamkorlik, hamjihatlikka erishadilar o‘zaro fikr va tajriba almashadilar. Lekin bugungi kunda maktablardagi o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati tarbiyaviy ishning eng dolzarb nuqtalaridan biri bo‘lib qolayotgani hech kimga sir emas. O‘qituvchi va o‘quvchilar bir-birini yaxshi tushunmasligi turli xil ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Kuzatish va tadqiqotlar bugungi kunda shunday ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar ko‘pincha "yomon o‘qituvchi" o‘qituvchisini yaxshi ko‘rmasliklari bu o‘qituvchilarni o‘z fanini yaxshi bilmasliklari yoki qattiq qo‘lliklari emas balki o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan yaxshi munosabati olmasliklari ular bilan qo‘pol munosabat qilishlari bunga misol bo‘la oladi. O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotning samarali bo‘lishi eng avvalo muloqot odobiga o‘zaro hurmat bir-birini tushunishga intilishiga bog‘liqdir. Muloqot odobi o‘qituvchiga o‘z fikrlarni o‘quvchilar qanday qabul qilayotganini kuzatib borish, ularning yuz ifodalaridagi o‘zgarishlarga e’tibor, muloqotning borishiga

o‘z vaqtida tegishli o‘zgarishlar kiritish imkonini ham beradi. Samarali muloqot o‘quv jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. O‘qituvchi muloqot madaniyatga ega bo‘lsa u talabalarda bunday fazilatlarni shakllantiradi [1]. Muloqot madaniyati o‘qituvchi o‘quvchining erkin fikr bildirishishiga o‘z nuqtai nazarini asoslashga va boshqalarning fikrni tinglashga yordam beradi [2].

Muloqot madaniyatini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

O‘quv dasturiga axloqiy psixologik muloqotga oid mashg‘ulotlaeni kiritish. O‘quvchilar uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun treninglar tashkil etish o‘quvchilarni bahslashish, tinglash muloqotga yuritishga o‘rgatish[3]. O‘qituvchining muloqotdagi ovoz ohangi yuz ifodasi tana til kabi omillar bevosita o‘quvchining ruhiyatiga ta'sir ko‘rsatadi[4]. Muloqot madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan pedagog-bu madaniyat targ‘ibotchisidir. Ushbu madaniyatni shakllantirish o‘qituvchi doimo o‘z ustida ishlashi, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlanirib borishi kerak[5]. Shu boisdan ham, pedagoglar uchun kommunikativ madaniyatni rivojlanirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini o‘tkazish dolzarbdir[6].

Xulosa. Muloqot madaniyatini rivojlanirish-bu faqatgina o‘qituvchi vazifasi emas, balki bu jamiyatda har birimiz inson bo‘lib, yashayotgan ekanmiz, insonlar munosabatda o‘zaro hurmat, ularni fikrlarini tinglay olish, ochiqlik va samimiylik, to‘g‘ri so‘zlikka, aytayotgan fikrlarni sabr toqat bilan eshita bilish muloqot madaniyatining eng go‘zal madaniyatidir. Mana shunday insonlarni jamiyatga ota-onalar, o‘qituvchi ta'lim tarbiya berish shakllantiradilar. Bola tu‘g‘ilgandan unga Ota-onasi asrab-avaylab tarbiya berib, maktab yoshiga yetganida esa, o‘qituvchilar ta'lim-tarbiya, bilim beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki o‘z xulqi, muomalasi va muloqot madaniyati orqali ularga namuna bo‘ladilar. Muloqotda hurmat, sabr, toqat, aloqa, adolat va e'tibor ko‘rsatgan o‘qituvchi bu qadriyatlarni amaliyotlarga singdiradi, bu esa jamiyatning madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi. Yaxshi muloqot madaniyatiga ega o‘qituvchi jamiyatda hurmat topadi, bu esa ta'lim tizimining nufuzini oshiradi. O‘qituvchi ota-onalar bilan to‘g‘ri muloqotda bo‘lsa, bolalarning tarbiyasi va ta'limi yanada sifatli bo‘ladi. Men uchun muhim bo‘lgan narsa pedagogik ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini shakllantirish uchun avvalo o‘zim namuna bo‘lar edim.

O‘quv jarayonida ularning fikrini qadrlab, hurmatli va ochiq muloqot olib borib, har bir o‘quvchining so‘ziga quloq tutar edim. O‘quv jarayonida turli xil samarali metodlardan, guruhli ishlash, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar, klaster usulli,



o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undardim. Yana men uchun muhim bo‘lgan narsa faqat bilim berish emas, balki ularni madaniyatli muloqot qilishga o‘rgatish. Chunki kelajakdagi pedagoglar jamiyatda o‘z o‘rnini va ta’siriga ega bo‘lishlari uchun avvalo, to‘g‘ri va madaniyatli muloqot qila oladigan shaxs bo‘lishlari kerak deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘offurov K. , Xasanova M. , O‘ralov B. (2021) Ta'lim psixologiyasi va pedagogik muloqot Buxoro: "BuxDU" nashriyoti.
2. Karimova N. (2021). Didaktika va pedagogik muloqot asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya"
3. Ziyayeva M. (2020) Kommunikatsiya va axloq madaiyati. Qarshi "Nafas" nashriyoti.
4. Yusupova I. O‘qituvchining nutq madaniyati-Toshkent, 2018.
5. Toshpulatova D. O‘qituvchilar uchun kommunikativ kompitensiyalar-Namangan, 2021.
6. O‘zbekiston Respubliyasi XTV pedagogik kadrlarni qayda tayorlash va ularning malakasining oshirib boroshi-Toshkent, 2023.